▪suhbat (dialog);

▪muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Muhandislik o'yinlari asosida talabalarni muhandislik kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Quyida biz talabalarni muhandislik kompetentligi rivojlantirishga qaratilgan bir nechta muhandislik o'yin metodlariga to'xtalib o'tamiz.

O'xshatishli modellashtirish metodi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda murakkab ishlab chiqarish vaziyatlarini ifodalash, odatda, qiyin bo'ladi va haqiqiy sharoitlarda eksperimentlar o'tkazish katta moddiy harajat va vaqt talab qiladi.

Model – bu tizimdagi real ishlab chiqarish yoki bozor jarayonlari o'zaro aloqalarini aks ettirish (ifodalash, tavsiflash) ning soddalashgan shakli bo'lib, butun tizimning holatiga ya'ni maqsad ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va tashkil etuvchi elementlarning ta'sirini urganish, baholash, bashorat qilish imkonini beradi. Modellar fizik, matematik, mantiqiy, imitatsion va hokazo bo'lishi mumkin [8].

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Kreativ yondashuv asosida talabalarning muhandislik kompetentligini rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, muhandislik ta'limida innovatsion metodlardan foydalanish talabalar bilim darajasini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va real muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Muhandislik ta'limi sohasida kreativ yondashuvning ahamiyati shundaki, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribani ham o'z ichiga olgan ta'lim tizimini shakllantirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan, raqamli simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va loyiha asosidagi ta'lim metodlari muhandislik kompetentligini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuv asosida muhandislik ta'limining samaradorligini oshirish uchun o'quv dasturlariga problema asoslangan ta'lim (PBL), loyihaviy ta'lim (PjBL) hamda STEAM konsepsiyasini keng joriy etish zarur. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalarning mustaqil tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish muhim strategik yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim. Shunday qilib, kreativ yondashuv asosida muhandislik kompetentligini rivojlantirish metodikasi muhandislik sohasidagi kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishga, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlashga va global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni.

(2). Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik, T., "Adabiyot uchqunlari", 2019.

(3). Байденко В.И. Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход. М., Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2009, с. 482–492.

(4). Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. М., «Народное образование», 2007, № 2, с. 54–55.

(5). Пригожин И. Введение в термодинамику необратимых процессов. Ижевск, НИТС «Регуляторная и хаотическая динамика», 2001, с. 160.

(6). Николис Г., Пригожин И. Самоорганизация в неравновесных системах. М., "Мир", 1979, с. 512.

(7). Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/55.

(8). Ismoilov D.M. http://www.idpublications.org/wpcontent/uploads/2020/06/Full-Paper.METHODS-OF-SCIENTIFIC KNOWLEDGE-AND-RESEARCH-IN-THE CONTENT OF SECONDARY EDUCATION.pdf.

Nekboyeva Madina Olimjon qizi (Buxoro viloyati Peshku tuman 46-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi)

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati, yoshlar harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyaning muhim jihatlari, ta'limda harbiy-vatanparvarlik ruhini oshirishdagi texnologiyalar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, harbiy, konsepsiya, ta'lim, tarbiya, O'zbekiston Respublikasi, globallashuv, ma'naviy tahdidlar.*

ТЕНДЕНЦИИ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются некоторые аспекты воспитания молодежи в духе военного патриотизма. В статье анализируется сущность военного патриотического воспитания, важнейшие элементы концепции воспитания молодежи в духе военного патриотизма, а также технологии повышения патриотического духа в образовании.*

Ключевые слова: *патриотизм, военный, концепция, образование, воспитание, Республика Узбекистан, глобализация, духовные угрозы.*

TENDENCIES OF EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Annotation. *This article examines certain aspects of educating youth in the spirit of military patriotism. The article analyzes the essence of military patriotic education, the key aspects of the concept of educating youth in the spirit of military patriotism, and the technologies for enhancing military patriotic spirit in education.*

Keywords: *patriotism, military, concept, education, upbringing, Republic of Uzbekistan, globalization, spiritual threats.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida yurtning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Bosh Qo‘mondon Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ushbu fikrlarni quyidagicha ta’kidlaydi: “Bir fikrni hech qachon unutmasligimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurol-yarog‘lar bilan ta’minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma’naviy jihatdan zaif bo‘lsa, ya’ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin” [1]. Shunga ko‘ra, ayni paytdagi vazifalarni amalga oshirishda so‘nggi yillarda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari”gi 267-qarorining qabul qilinishi yana bir yordamchi huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda (2).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda vatanparvarlik mavzusida muayyan darajada tadqiqot ishlari olib borildi: ommabop kitob va risolalar, ilmiy va o‘quv uslubiy qo‘llanmalar chop etildi. R.Y.Qurbonovning «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning orni», Kalkanov E.T. “Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari, S.Astanova, I.Y.Inoyatov, M.X.Abilovning izlanishlari ham ilmiy e’tiborga molikdir. Vatanparvarlik masalasining ham ijtimoiy ham siyosiy nuqtayi nazardan o‘rgangan olimlar ko‘pdir. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida ko‘pgina tadqiqotchilar bu mavzu doirasida izlanishlar olib bormoqdalar. Ushbu maqolada o‘rganilgan mavzu doirasidagi iqtiboslardan foydalanildi. Umuman olganda, vatanparvarlik mavzusida juda ko‘p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya’ni, bizning zamonamizda ham o‘ziga xos o‘rin egallagan bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo‘llanib kelmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma’noda, o‘zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu insonning tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o‘tadigan, ta’lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo‘msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, uni yomon ko‘zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha’nini himoya qilish bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas’uliyatli vazifalardandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash omilllari muhokama qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi tahlil qilindi va hozirgi kun dolzarb masalalari bilan solishtirildi. Shunigdek, bu borada jadidlar tomonidan tarbiya va vatanparvarlik borasidagi yondashuvlari o‘rganildi

Tahlil va natijalar. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi – mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi [3].

Shuningdek ushbu konseptsiyada quyidagilar asosiy vazifa sifatida belgilangani muhimdir. Jumladan:

Birinchidan, yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish.

Ikkinchidan, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish.

Uchinchidan, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash.

To'rtinchidan, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Beshinchidan, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash.

Oltinchidan, O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish [4].

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari, asosan, to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3–7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda (7–16 yoshdagi bolalar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, harbiy xizmatga va ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarishga bo'lgan havasini oshirish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, yoshlarning jismonan sog'lom, kuchli va irodali ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi.

Uchinchi bosqich (16–18 yoshdagi o'smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi.

To'rtinchi bosqich (18–30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi [5]. Mazkur Konsepsiya yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Konsepsiyaning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, Vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim va professional malakaga, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini beradi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni tarixiy, ijtimoiy va pedagogik omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, jadid mutafakkirlarining qarashlari ushbu jarayonda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jadidchilik harakati vakillari o'z davrida millatni ilm-ma'rifat bilan yuksaltirish, mustamlakachilik asoratidan xalos etish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edilar. Ularning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Jadid mutafakkirlarining vatanparvarlik tarbiyasiga oid g'oyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda muhokama etilishi mumkin. Jadidchilik va milliy ong shakllanishi Jadidlar milliy ong va o'zlikni anglashni mustahkamlash orqali vatanparvar yoshlarni tarbiyalash g'oyasini ilgari surganlar. Behbudiy, Avloniy, Fitrat va boshqa mutafak-

kirlar yosh avlodni bilim olishga da'vat etib, ular mustamlakachilik zulmiga qarshi ongli tarzda kurashishi lozimligini ta'kidlaganlar [6]. Bugungi kunda ham ta'lim tizimida milliy ongni mustahkamlash va yoshlarni o'z milliy qadriyatlariga sodiq bo'lishga undash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Taniqli jadid ma'rifatparvari, birinchi o'zbek pedagogi Abdulla Avloniyning tarbiyaga bergan ta'rifi jadidchilik faoliyatida tarbiya masalalari nechog'liq yuksak o'rin tutganidan dalolat beradi: "Alhosil tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot,yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Tarbiya masalasi bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi. Jadidchilar orasida A.Avloniy o'z faoliyati davomida tarbiya masalariga juda keng o'rin ajratadi. Avloniy o'zi yaratgan asarlarda ta'lim bilan bir qatorda, tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari aynan tarbiya masalalariga bag'ishlangan. A.Avloniy tarbiya doirasini keng ma'noda tushunadi, uni faqat axloq bilan chegaralab qo'ymaydi, balki tarbiya vatanga sadoqat, el-yurtga hurmat kabi insoniy fazilatni ham o'zida mujassamlashtiradi, degan g'oyani ilgari suradi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi va uning ahamiyati haqida so'z yuritadi.

Fitrat bolalar tarbiyani o'zi yashayotgа atrof-muhit va atrofidagi bolalardan olishlarini ta'kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazishini isbotlab beradi. Fitrat o'zining asarida: "Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi", deya yozadi [7].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi aniq rejalarni amalga oshirishda, ta'limni eng quyi pog'onalaridan boshlanishi muhimdir. Zero, kelajakka yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har bir shaxs uchun asosiy vazifa bo'lmog'i lozim. Bu borada ta'limda o'tmish va kelajakni birga bog'lash eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. "Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir".https://www.uzbekembassy.in/qurolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-va-taraqqiyotining-mustahkam-kafolatidir/?lang=uz.

(2). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. https://lex.uz/docs/-6518238?ONDATE= 16.01. 2024

(3). "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". https://lex.uz/docs/-3307879.

(4). Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. https://lex.uz/docs/-3571158.

(5). Mahmudov R.M., Akbarov L.I. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi amalda. Pedagogs international research journal. Vol. 1, Issue 1, January-2022, p. 230.

(6). Rizayev N.S. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jadidchilik g'oyalarining ahamiyati. Pedagogs social, scientific journal. Vol. 56, Issue 2, 2024, p. 39.

(7). Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., 2018, 31-bet.

(8). Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2020, 112-bet.

Rajapova Kumush Masharipovna (Qaraqalpoq davlat universiteti dotsenti)

ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA MAQOL VA MATALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish texnologiyalari haqida gap ketadi. Shuning bilan birga, dars jarayonida maqol ва matallar ustida ish olib borishda amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan hamda o'quvchilarning nutqini o'stirishda maqol ва matallarning ahamiyati haqida ham fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchi tarbiyasida tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *barqaror birikma, maqol, matal, ibora, turg'un birikma, tasviriy ifoda, shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, jarangsizlanish, fonetik hodisalar.*